



O'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH VA KASB TANLASHLARIGA KO'MAKLASHISH

Mirzaxmedova Mashxura Ismoil qizi

Toshkent viloyati Oqqo 'rg'on tumani 45-maktab psixologi

Anotatsiya: 7-11-sinf o'quvchilarida kasb tanlashda uchraydigan asosiy muammolar, o'quvchi yoshlarni to'g'ri kasb tanlashidagi muammolar va ularni yechimiga ko'maklashish.

Kalit so'zlar: Kasb tanlash, kasb-hunar, o'smir, o'spirin, motivatsiya, kasb tanlash, vatanparvarlik, ekskursiya.

Kasb tanlash muammosi o'spirin hal qilishi kerak bo'lgan eng muhim muammolardan biridir. Chunki o'quvchi kelajakdagi egallamoqchi bo'lgan kasb orqali butun bir hayotini hal qiladi. Har bir inson tanlagan kasbi uning kelajagi hisoblanadi. Maktabni bitirguncha hamma o'quvchilar ham bo'lajak kasbni aniq tanlay olmaydi. Buning sababi esa o'spirinlarning barcha kasblar to'g'risida aniq ma'lumotga ega emaslik hisoblanadi. Kasb-hunarga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdir. Ularni kasb hunarga yo'naltirish orqali, bo'lajak kasbiy qarorlarni shakllantirish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb –hunarga yo'naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o'quvchi shaxsini kasbga yo'naltirishda individual xususiyatlarni ham xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazardan mehnat reurslarini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olish kerak. Lekin bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy pedagogik asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o'quv qo'llanmalar, dars ishlanmalari, ko'rgazmali [yositalarning kamligi](#), kasb tanlash mezon va me'yoring belgilanganligi, kasb tanlash bo'yicha tezkor aloqning o'rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalardan biridir. Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkoniyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni qiziqishi mos kasblar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborot va yangiliklardan xabardor bo'lishi zarur. Maktablarda o'quvchi yoshlarni kasb –hunarga yo'naltirish bu ularni qiziqishlari va moyilliklari, layoqatlari hamda qobiliyatlariga mos holda kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish bilan bir qatorda



o'smirlarni kasbiy o'zligini anglash va hayot yo'lini tanlashda maslaxat beruvchi omil sifatida qaralishi nazarda tutilgan. Bu to'g'risida bir qancha hukumat qarorlari qabul qilingan. Hukumat qarorlarining ijrosini ta'minlash yuzasidan o'quvchilarning kasbiy qiziqishi va layoqatini shakllantirishda, ularni ta'limning keyingi turiga to'g'ri jalb qilish uchun kasbga yo'naltirishda qo'llaniladigan o'quv –metodik qo'llanmalar, ilmiy –uslubiy tavsiyalar, me'yoriy hujjatlar, jamiyatda qadimdan mavjud bo'lgan hamda yangilanib, o'zgarib borayotgan kasblar haqidagi ma'lumotlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga zamon bilan hamnafas yetkazish samaradorligiga bog'liqdir.

O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etishda, ushbu jarayonni ta'lim muassasalarida amalga oshiruvchi o'qituvchilar, pedagog hodimlar hamda aholi o'rtasida(mahalla, ota-onalar) profilaktika ishlarini olib borish maqsadida hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bularning zamirida o'quvchi yoshlarni kasbiy qobiliyati va layoqatini aniqlash asosida ularni kasbiy qarorlarini shakllantirishga qaratilgan yaxlit faoliyat jarayonida ta'limning keyingi turi va bosqichiga to'g'ri yo'naltirish yotadi.

O'quvchilarni kasbiy qarorlarini shakllantirish-bu o'quvchi-yoshlarga o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga malakali mutaxassislar ko'magida kasbga bo'lgan layoqatiga ishonch hosil qilish, kasbiy vazifalarni qo'llay olish tajribasini hosil qilish, kasbiy madaniyat sifatleri (kasbiy idrok, kasbiy bilimdonlik, kasbiy tafakkur, kasbiy salohiyat va hakoazalar)ni tarbiyalashga yo'naltirilgan izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan pedagogik faoliyat jarayonidir. Chunki, o'quvchilarni kasb hunarga to'g'ri yo'nalganligini tashkil etish murakkab, uzoq muddatli dialektik jarayon bo'lib,uning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ko'zlangan maqsadga erishish muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Mavjud obektiv va subektiv omillardan unumli faydolana olish ham o'quvchilarga kasb-hunarni to'g'ri tanlashlariga xissa qo'shadi. O'quvchi-yoshlar o'rtasida kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirishni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra texnologik bo'lishi lozim. Chunki muayyan faoliyatga nisbatan texnologik yondashuv ushbu faoliyatning yaxlit jarayoni to'g'risida oldindan to'laqonli ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Minglab kasblar olamidani o'quvchi tanlagan kasbiy qarori bo'yicha turli vaziyatlarni oqilona baholash asosida faoliyat mazmuniga ma'lum o'zgarishlar, yangiliklar kiritib, tarbiyalanuvchilarga mavjud bo'lgan kasbiy sifatlarni hisobga olish va ularni boyitish xususida qat'iy fikrga ega bo'lishi, kasb-hunarga yo'nalganligini samaradorligini muhim omillari bo'la oladi. Kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv-bu o'quvchi oshlar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy amaliy



ko'nikma [va malakaga aylantirish](#), ularga faol kasbiy yo'naltirishni tashkil etish tajribasini yuzaga keltirish hamda kasbiy qobiliyat va layoqatlari asosida kasbiy qarorlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida amaliyotchi psixolog va kasb-hunarga yo'naltiruvchilar uchun kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish majmui bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-241-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Tashxis markazi "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish" o'quv qo'llanmasi